TA’LIM TIZIMIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Alibayeva Dildora Baxodir qizi - Guliston davlat universiteti

Biz texnik va texnologik yangilanishlar asosida axborotlashgan va globallashgan davrda yashamoqdamiz. Bunday sharoitda intellektual salohiyatni oshirish, ilg‘or loyihalar va ishlanmalarni amaliyotga tez hamda samarali tatbiq qilish mamlakat taraqqiyotida alohida ahamiyatga egadir. Buning uchun bugungi talaba yoshlarga zamon talabi darajasida bilim berishga yo‘naltirilgan o‘quv-metodik tizimni yaratishimiz kerak.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga samarali qo‘llashda ular asosida yaratilgan intellektual tizimlarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Itellektual tizimlar o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda, o‘quv rejalar, o‘quv dasturlari va o‘quv materiallarini yaratishga tavsiyalar ishlab chiqishda, test asosida baholash va nazorat qilish ishlarida pedagogik xodimlar va rahbarlarga ko‘makchi vazifasini bajaradi.

Hozirgi vaqtda intellektual tizimlarni tadqiq etish va yaratish bo‘yicha bir qancha yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Bilimlarni taqdim etish, bilimlardan foydalanish (inson fikrlashiga o‘xshash modellar), muloqot (inson va sun’iy intellekt o‘rtasida), qabul qilish (vizual tarzda), ta’lim berish va ta’lim olish (muammoli vaziyatlarni tashkil etish) kabilar shular jumlasidandir [1].

Intellektual tizim deganda aqliy hatti-harakatlarga nisbatan kompyuter tizimining qobiliyati tushuniladi. Bu tizim yordamida kompyuter imkoniyatlari orqali ta’lim oluvchilarni o‘qitish va bilim darajalarini baholash mumkin [2].

Dars jarayoni uchun tavsiya etilgan, o‘quv maqsadlari uchun mo‘ljallangan intellektual tizimlarni bir necha guruhlarga bo‘lish mumkin. Ular quyidagi guruhlarni tashkil qiladi:

- axborot-ma’lumotlar tizimi;
- intellektual mashq va masalalar uchun mo‘ljallangan tizimlar;
- boshqarish tizimlari [1], [3].

Talabalarning mustaqil ta’lim olishini tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, o‘quv materiallarining turli shakllari, jumladan o‘rganiladigan jarayon va hodisalarni virtual shaklda aks ettiradigan elektron o‘quv-metodik resurslar, yangi mavzularni o‘zlashtirish jarayonida vujudga keladigan savollarga ixtiyoriy vaqtda to‘la javob olish imkoniyatini beradigan integrallashgan elektron lug‘at-ma’lumotnoma, tabiiy fanlarni yo‘nalishlari bo‘yicha virtual laboratoriya va namoyish-tajriba mashg‘ulotlari talabalar tomonidan o‘quv fanlarini mustaqil o‘rganishga zarur bo‘ladigan resurslardan sanaladi. Mustaqil ishni tashkil etishda yuqorida sanab o‘tilgan axborot resurslardan foydalanish tartibi har bir talabaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda belgilanadi.

Hozirgi kunda talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishda ta’lim olishning intellektual tizimini yaratish va joriy etish dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- talabalarning mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini e’tiborga olish va uni amalga oshirish uchun etarli shart-sharoitlar yaratib berish;
- ta’lim tizimining turli yo‘nalishlarida talabalarning faol ta’lim olish shakllariga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash va uni joriy qilish;
- talabalar tomonidan ta’lim mazmuni, metodi va zamonaviy vositalarini mustaqil tanlashlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- fan va texnika taraqqiyotining bugungi darajasi bilan mukammal tanishtirish va bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish;
- oliy ta’lim muassasalarining elektron axborot-ta’lim muhiti va integrallashgan o‘quv-ilmiy resurslarini yaratish;
- ta’lim jarayonini axborotlashtirish borasida to‘plangan ilg‘or tajribalarni amaliyotga joriy etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish imkonini beruvchi elektron o‘quv-metodik majmualar yaratish;
- talabalar mustaqil ta’lim olishlarini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilishga oid o‘quv-metodik adabiyotlar, tavsiyalar, ishlanmalar, yo‘riqnomalar, ko‘rsatmalar ishlab chiqish va boshqalar [4].

Ta’lim olishning intellektual tizimini joriy etishning asosiy maqsadi – ta’lim jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish tamoyillari asosida tashkil etishni ta’minlash, ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan etakchi professor-o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatlariga tayangan holda, ta’lim sifatini oshirish, talabalar uchun uzluksiz ta’lim olish imkoniyatini yaratish, ta’limning turli shakllarini o‘zaro bir-biriga muvofiqlashtirishdan iborat.

Bugungi kunda ta’lim jarayonini takomillashtirishning asosiy omillari sifatida kompyuter bilan muloqotni, elektron axborot-ta’lim resurslari orqali o‘quv-metodik ta’minotni yaratish, o‘quv jarayonini kompyuterli axborot-ta’lim muhiti va zamonaviy talablar darajasida tashkil qilish, ta’lim berishda gipermatn, multimedia, axborot-kommunikatsiya tizimlaridan keng foydalanish kabilarni qayd etish mumkin.

Intellektual tizimning asosiy tashkil etuvchilari talabalarga tanlangan mavzular haqida to‘liq axborot berish, mashq va masalalar bilan ta’minlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish uchun baholash tizimlaridan iborat. Intellektual tizimlar elektron darsliklar va ta’lim portallari orqali ta’lim oluvchilarga xizmat qiladi.

Intellektual tizimlar asosida mustaqil ta’limni tashkil etishning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- talabalar mustaqil ishlash imkoniyatining kattaligi;
- o‘quv-metodik ta’minotning rang-barangligi;
- ta’lim olishni individuallashtirish;
- etakchi oliy ta’lim muassasalari hamda ilmiy markazlarda faoliyat ko‘rsatayotgan yuqori malakali professor-o‘qituvchilar hamda olimlar salohiyatidan keng foydalanish;

- talabalar bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga sharoit yaratish;
- multimedia texnologiyalarini qo‘llash orqali talabalarda o‘qishga qiziqishni orttirish;
- real holatlarda namoyish qilinishi qiyin, yoki murakkab bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va kuzatish imkoniyatlarini yaratish;
- talabalarning amaliy kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda o‘quv trenajer vazifasini bajarish;
- talabalarning kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlarini bajarishda o‘quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlab olish, turli ma’lumotlarni tahlil eta olish kabi malakalarni shakllantirish va boshqalar.

Intellektual tizimlar uchun tayyorlanadigan didaktik materiallarni ishlab chiqishga bir necha pedagog-o‘qituvchilar va muxandis-texnik xodimlar jalb qilinadi. Ularga qo‘yiladigan talablar va vazifalar quyidagilardan iborat:

O‘qituvchi, muallif - o‘quv materialining mazmuni va o‘quv kursini to‘ldirish bilan bog‘liq masalalarni bajaradi.

Texnik mutaxassislar - o‘quv kursida texnik vositalarni qo‘llash muammolari bilan shug‘ullanadi (yuklash, tarmoqqa kirish, texnik xatolar va h.k.).

Psixolog - muammoli vaziyatlar muhokamasi, o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari, o‘qitish strategiyasini tanlash, o‘quvchilarning psixologik monitoringini muhokama qilish masalalari bilan shug‘ullanadi.

Talabalar – intellektual tizimdan foydalanuvchi, o‘quv faoliyati yakka va guruh shaklda tashkil qilinishi mumkin.

Pedagogik jamoa - tajriba almashish, muammoli vaziyatlarni hamkorlikda echish, talabalar faoliyatini baholashda faoliyat ko‘rsatadi.

Bugungi kunda olib borilgan pedagogik tajribalarda o‘quv jarayonida o‘qitishni takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish omilini quyidagilar belgilashini ko‘rsatmoqda: avtomatlashtirilgan axborot-ta’lim resurslari yordamida o‘quv-metodik ta’minotni yaratish, o‘quv jarayonini kompyuterli axborot-ta’lim muhiti vositasida tashkil qilish, ta’lim jarayonida gipermedia, multimedia, axborot-kommunikatsiya vositalari, intellektual tizimlardan keng foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Рыбина Г.В. Основы построения интеллектуальных систем. – М.: Финансы и статистика; ИНФРА-М. 2010. с.432.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 5 jildli, T.: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2007. – 592 b.

3. Toshtemirov, D. (2023). TECHNOLOGIES FOR CREATING E-LEARNING RESOURCES. *Science and innovation*, *2*(B1), 396-401.

4. Eshbayevich, T. D. (2022). ЎҚУВ ЖАРАЁНИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Science and innovation*, *1*(Special Issue 2), 554-560.